Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 2/1
LINGUISTICS
MAXSUS SON

Ilhom Xaydarov – PhD, dotsent

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti (Toshkent, O‘zbekiston)
E-mail: ilhomhaydarov31@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0000-1713-8856

FILOLOGIK TA’LIMDA LINGVODIDAKTIK YONDASHUVLARNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI VA O‘QUV TOPSHIRIQLARINI TAKOMILLASHTIRISH

Annotatsiya. Mazkur maqolada zamonaviy filologik ta’lim tizimida lingvodidaktikaning o‘rni, o‘quv topshiriqlarining mazmuni va ularni kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish masalalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda filologik ta’limning hozirgi holati, xususan, o‘quv jarayonida reproduktiv topshiriqlarning ustunligi, ortiqcha grammatik nazariyalarning mavjudligi hamda kasbiy-kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishga yetarli e’tibor qaratilmayotgani ilmiy jihatdan asoslab beriladi. Tadqiqot davomida lingvodidaktik adabiyotlar, zamonaviy metodik ishlanmalar va O‘zbekiston Respublikasining til siyosatiga oid normativ hujjatlari tahlil qilindi. Natijalar filologik ta’limda interaktiv, pragmatik va kreativ topshiriqlardan foydalanish talabalar nutqiy faoliyatini rivojlantirishda samarali ekanini ko‘rsatdi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar va multimodal yondashuvlar filologik ta’lim samaradorligini oshirishi aniqlandi. Tadqiqot yakunida o‘quv topshiriqlarini lingvodidaktik tamoyillar asosida qayta loyihalash zarurligi asoslandi.

Kalit so‘zlar: lingvodidaktika, filologik ta’lim, kompetensiyaviy yondashuv, o‘quv topshiriqlari, kommunikativ kompetensiya, pragmatik metodlar, raqamli ta’lim.

Ilkhom Khaydarov – PhD, associate professor
Uzbekistan State World Languages University (Tashkent, Uzbekistan)

MODERN TRENDS OF LINGUISTODICATIC APPROACHES IN PHILOLOGICAL EDUCATION AND IMPROVEMENT OF LEARNING TASKS

Abstract. This article analyzes the role of linguodidactics in the modern system of philological education, as well as the content of educational tasks and the possibilities of improving them through a competency-based approach. The study scientifically substantiates the current problems of philological education, including the dominance of reproductive tasks in the learning process, the excessive focus on grammatical theories, and the insufficient attention paid to the development of professional and communicative competencies. During the research, linguodidactic literature, modern methodological studies, and normative documents related to the language policy of the Republic of Uzbekistan were analyzed. The results demonstrate that the use of interactive, pragmatic, and creative tasks in philological education is effective in developing students’ speech activity and communicative skills. Furthermore, the study revealed that digital technologies and multimodal approaches significantly increase the effectiveness of philological education. The research concludes that it is necessary to redesign educational tasks based on linguodidactic principles in order to improve the quality and practical orientation of modern philological education.

Keywords: linguodidactics, philological education, competency-based approach, educational tasks, communicative competence, pragmatic methods, digital education.

Ильхом Хайдаров – PhD, доцент
Узбекский государственный университет мировых языков (Ташкент, Узбекистан)

СОВРЕМЕННЫЕ ТЕНДЕНЦИИ ЛИНГВИСТОДИКАТИЧЕСКИХ ПОДХОДОВ В ФИЛОЛОГИЧЕСКОМ ОБРАЗОВАНИИ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕБНЫХ ЗАДАНИЙ

Аннотация. В данной статье анализируется роль лингводидактики в современной системе филологического образования, содержание учебных заданий и возможности их совершенствования на основе компетентностного подхода. В исследовании научно обосновываются актуальные проблемы филологического образования, в частности преобладание репродуктивных заданий в учебном процессе, чрезмерное внимание к грамматическим теориям, а также недостаточное развитие профессионально-коммуникативных компетенций обучающихся. В ходе исследования были проанализированы лингводидактическая литература, современные методические разработки и нормативные документы, связанные с языковой политикой Республики Узбекистан. Результаты показали, что использование интерактивных, прагматических и творческих заданий в филологическом образовании эффективно способствует развитию речевой деятельности и коммуникативных навыков студентов. Кроме того, было установлено, что цифровые технологии и мультимодальные подходы значительно повышают эффективность филологического образования. В заключении обосновывается необходимость переработки учебных заданий на основе лингводидактических принципов для повышения качества и практической направленности современного филологического образования.

Ключевые слова: лингводидактика, филологическое образование, компетентностный подход, учебные задания, коммуникативная компетенция, прагматические методы, цифровое образование.

KIRISH

XXI asrda global axborotlashuv, raqamli kommunikatsiya va texnologik taraqqiyot ta’lim tizimining barcha bosqichlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatmoqda. Zamonaviy jamiyatda til nafaqat kommunikativ vosita, balki ijtimoiy, madaniy va kasbiy integratsiyaning muhim omiliga aylanmoqda. Shu sababli filologik ta’limning maqsadi ham faqat grammatik bilimlarni o‘rgatish bilan cheklanib qolmay, balki talabalarda kommunikativ, pragmatik va kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishni ham nazarda tutmoqda.

Lingvodidaktika tilni o‘qitishning nazariy va metodologik asoslarini o‘rganuvchi fan sifatida filologik ta’limni modernizatsiya qilishda muhim o‘rin tutadi. Zamonaviy lingvodidaktik yondashuvlar o‘quvchini faqat nazariy bilim egasi emas, balki turli kommunikativ vaziyatlarda til vositalaridan samarali foydalana oladigan mutaxassis sifatida shakllantirishni maqsad qiladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, filologik ta’limdagi o‘quv topshiriqlari ta’lim samaradorligini belgilovchi asosiy vositalardan biri hisoblanadi.

Davronov (2010) algoritmik mashqlarning o‘quvchilarning mustaqil fikrlash faoliyatini rivojlantirishdagi ahamiyatini ta’kidlaydi. Shuningdek, Hamroyev (2019) fonetik materiallarni o‘qitishda metodik ta’minotni takomillashtirish zarurligini qayd etadi. Muhiddinova (2011) esa uzviy va uzluksiz til ta’limi konsepsiyasida kommunikativ yondashuvning ustuvorligini asoslab beradi.

Amaliyot shuni ko‘rsatadiki, hozirgi filologik ta’limda grammatik materiallarga haddan tashqari urg‘u berilib, talabalarni real kommunikativ faoliyatga tayyorlash yetarli darajada amalga oshirilmayapti. Ko‘plab darsliklarda reproduktiv topshiriqlar ustun bo‘lib, ijodiy va interaktiv faoliyatga kam e’tibor qaratilgan. Natijada talabalar nazariy bilimga ega bo‘lsalar-da, kasbiy

nutqiy faoliyatda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

Prezident Sh. Mirziyoyevning 2020-yil 20-oktyabrdagi PF-6084-son Farmonida o‘zbek tilini rivojlantirish, zamonaviy o‘qitish metodikalarini yaratish va ta’lim mazmunini kompetensiyaviy yondashuv asosida yangilash vazifalari belgilangan (Mirziyoyev, 2020). Ushbu islohotlar filologik ta’limni yangi bosqichga olib chiqish uchun metodik asos bo‘lib xizmat qilmoqda.

Mazkur maqolaning asosiy мақсади filologik ta’limda lingvodidaktikaning o‘rnini aniqlash, o‘quv topshiriqlarining amaldagi holatini tahlil qilish hamda ularni zamonaviy kompetensiyaviy yondashuv asosida takomillashtirish yo‘llarini ilmiy asoslashdan iborat.

METODOLOGIYA

Tadqiqot davomida nazariy tahlil, qiyosiy tahlil, strukturaviy-didaktik yondashuv va pragmatik transformatsiya metodlaridan foydalanildi. Tadqiqotning metodologik asosini lingvodidaktika, filologik ta’lim va kompetensiyaviy yondashuvga oid ilmiy manbalar tashkil etdi.

Birinchi bosqichda Davronov (2010), Hamroyev (2019), Muhiddinova (2011), Hazratqulova (2025) va boshqa tadqiqotchilarning ishlari o‘rganildi. Bu orqali zamonaviy filologik ta’limning asosiy muammolari va rivojlanish tendensiyalari aniqlashtirildi.

Ikkinchi bosqichda oliy ta’lim muassasalarida foydalanilayotgan “Hozirgi o‘zbek adabiy tili” darsliklari va o‘quv topshiriqlari mazmuniy jihatdan tahlil qilindi. Tahlil jarayonida topshiriqlarning reproduktiv, tahliliy, ijodiy va interaktiv turlari o‘rganildi.

Uchinchi bosqichda kommunikativ va pragmatik yondashuvlarga asoslangan topshiriqlar modeli ishlab chiqildi. Ushbu modelda talabalarni real nutqiy vaziyatlarga tayyorlash, kasbiy muloqot kompetensiyalarini rivojlantirish va kreativ fikrlashni shakllantirish asosiy mezon sifatida belgilandi.

Shuningdek, raqamli platformalar va multimodal vositalarning filologik ta’limdagi o‘rni ham tahlil qilindi. Elektron topshiriqlar, videodarslar, interaktiv forumlar va onlayn muhokama vositalarining samaradorligi qiyosiy tarzda baholandi.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari filologik ta’lim tizimida ayrim metodik muammolar mavjudligini ko‘rsatdi. Eng avvalo, darsliklarda grammatik nazariy materiallarning haddan tashqari ko‘pligi kuzatildi. Talabalar morfologik va sintaktik tahlillarni bajarishga o‘rgatilayotgan bo‘lsa-da, real kommunikativ vaziyatlarda til birliklaridan foydalanish ko‘nikmalari yetarli darajada shakllanmayapti.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, o‘quv topshiriqlarining asosiy qismi savol-javob va reproduktiv mashqlardan iborat. Bunday topshiriqlar talabalarni mustaqil fikrlashga, kreativ yondashuvga yoki kasbiy muloqotga yetarli darajada yo‘naltirmaydi. O‘quv topshiriqlari metodikaning asosiy tayanch nuqtasi ekanini va ularni takomillashtirish zarurligini ta’kidlaydi.

Ijodiy va interaktiv topshiriqlardan foydalanilgan holatlarda esa talabalar faoliyatida sezilarli o‘sish kuzatildi. Masalan, debat, rol o‘ynash, loyiha ishlari va matn transformatsiyasi kabi topshiriqlar talabalarning nutqiy faolligini oshirdi. Shuningdek, bunday metodlar tahliliy fikrlash va kommunikativ kompetensiyalarni rivojlantirishda samarali ekanligi aniqlandi.

Raqamli texnologiyalardan foydalanish ham ta’lim samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Elektron platformalarda tashkil etilgan interaktiv topshiriqlar talabalarning darsga qiziqishini kuchaytirdi. Ayniqsa, multimodal materiallar audio, video va grafik vositalar asosida tashkil etilgan topshiriqlar til birliklarini yaxshiroq o‘zlashtirishga yordam berdi.

Natijalar shuni ham ko‘rsatdiki, pragmatik yondashuv asosidagi topshiriqlar talabalarni kasbiy faoliyatga samaraliroq tayyorlaydi. Masalan, rasmiy nutq yozish, intervyu tashkil qilish, ommaviy chiqish tayyorlash yoki mediamaqola yaratish kabi topshiriqlar filologik kompetensiyalarni real kommunikativ ehtiyojlar bilan bog‘laydi.

MUHOKAMA

Zamonaviy filologik ta’limda lingvodidaktik yondashuvlarning ahamiyati tobora ortib

bormoqda. An’anaviy metodlar asosan nazariy bilimlarni yetkazishga qaratilgan bo‘lsa, kompetensiyaviy yondashuv talabalarni amaliy faoliyatga tayyorlashni maqsad qiladi.

Tanqidiy fikrlashni refleksiv va ongli jarayon sifatida baholab, ta’lim tizimida kreativ va mustaqil fikrlashni rivojlantirish zarurligini ta’kidlaydi. Shu nuqtai nazardan, filologik ta’limda faqat grammatik tahlil bilan cheklanib qolish zamonaviy ehtiyojlarga javob bermaydi.

Uzluksiz til ta’limi tizimida kommunikativ yondashuvning ustuvorligini asoslab beradi. Darhaqiqat, bugungi kunda til o‘qitishning asosiy maqsadi grammatik bilimlarni yodlatish emas, balki nutqiy faoliyatni shakllantirishdir.

Raqamli lingvodidaktika ham zamonaviy filologik ta’limning muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. Elektron platformalar, korpus texnologiyalari va multimodal vositalar ta’limni interaktiv va samarali tashkil etishga imkon bermoqda. Shu bilan birga, bu vositalar talabalarning mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Filologik ta’limda topshiriqlarni to‘g‘ri loyihalash alohida ahamiyatga ega. Mashq va topshiriqlarni metodik jihatdan puxta ishlab chiqish ta’lim sifati uchun muhim ekanini qayd etadi. Agar topshiriqlar faqat reproduktiv xarakterga ega bo‘lsa, talabalar tayyor bilimni takrorlash bilan cheklanib qoladi.

Shu sababli, zamonaviy topshiriqlar quyidagi xususiyatlarga ega bo‘lishi zarur:

- kommunikativ yo‘naltirilganlik;
- kreativ faoliyatni rag‘batlantirish;
- kasbiy vaziyatlarga moslik;
- multimodal vositalardan foydalanish;
- mustaqil fikrlashni rivojlantirish.

Pragmatik yondashuv asosidagi topshiriqlar ayniqsa samarali hisoblanadi. Chunki ular til birliklarini real hayotiy vaziyatlar bilan bog‘laydi. Masalan, talabaga matnni grammatik tahlil qilish emas, balki uni jurnalistik maqolaga, blog matniga yoki rasmiy nutqqa aylantirish topshirig‘i berilsa, u til vositalaridan funksional foydalanishga o‘rganadi.

Bugungi kunda filologik ta’limning istiqboli raqamli va multimodal muhit bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli, lingvodidaktik yondashuvlarni zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiyalash filologik ta’lim sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

XULOSA

Lingvodidaktika zamonaviy filologik ta’limning ilmiy-metodologik asosini tashkil etadi. Zamonaviy ta’lim jarayonida grammatik nazariyani haddan tashqari ko‘paytirish emas, balki kommunikativ va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish ustuvor vazifa bo‘lishi kerak.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, amaldagi o‘quv topshiriqlari ko‘pincha reproduktiv xarakterga ega bo‘lib, talabalarning kreativ va kommunikativ faoliyatini yetarli darajada rivojlantirmaydi. Shu sababli, topshiriqlarni pragmatik va kompetensiyaviy yondashuv asosida qayta loyihalash zarur.

Raqamli texnologiyalar, multimodal vositalar va interaktiv metodlar filologik ta’lim samaradorligini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, kommunikativ vaziyatlarga asoslangan topshiriqlar talabalarni real kasbiy faoliyatga tayyorlash imkonini beradi.

Kelajakda filologik ta’limni modernizatsiya qilish jarayonida lingvodidaktikaning innovatsion yo‘nalishlari — raqamli lingvodidaktika, korpus texnologiyalari va multimodal ta’lim metodlari yanada muhim ahamiyat kasb etadi.

ADABIYOTLAR

1. Davronov, I. (2010). *Algoritmik mashq va uning xususiyati*. Filologiya va usuliyot masalalari. Buxoro.
2. Halpern, D. (2000). *Psikhologiya kriticheskogo myshleniya*. Piter.
3. Hamroyev, G. (2019). *Umumiy o‘rta ta’lim tizimida fonetikaga doir o‘quv materiallarining ilmiy-metodik ta’minotini takomillashtirish* (PhD dissertation). Samarqand.

4. Hazratqulova, O. A. (2025). Filologik ta’limda o‘quv topshiriqlarining holati va tahlili. *Ta’lim, fan va innovatsiya*, 2, 3–7.
5. Hazratqulova, O. A. (2025). O‘quv topshiriqlari asosida mavzuni anglash va kreativ fikrlash. *Hozirgi zamon filologiyasi: muammolar, tahlil va natijalar xalqaro konferensiyasi*, 21–25.
6. Khazratkulova, O. A. (2025). O‘quv topshiriqlari ustida ishlashning ilmiy metodik asoslari. *TISU ilmiy tadqiqotlar xabarnomasi*, 91–94.
7. Mirziyoyev, Sh. (2020). *Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida* PF-6084-son Farmon.
8. Muhiddinova, X. (2011). *Ta’lim bosqichlarida o‘zbek tili o‘qitilishi uzluksizligini ta’minlashning ilmiy-metodik asoslari* (Doctoral dissertation). Toshkent.
9. Qo‘chqorova, F. M. (2018). *Yangi avlod darsliklarida o‘quv materiallarini strukturaviy tashkil etishning didaktik parametrlari* (PhD dissertation). Toshkent.